

**O‘ZBEK AYOLI OBRAZINING TRANSFORMATSIYASI: KLASSIK  
ADABIYOTDAN ZAMONAVIY PROZAGACHA****Bazarova Shaxlo Shuxratovna,***Samarqand davlat chet tillar instituti, PhD. v.v.b.dotsenti*[shahlobazarova84@gmail.com](mailto:shahlobazarova84@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Islom dini va Sharq adabiyotida ayol shaxsi, uning ijtimoiy-ma'naviy mavqeyi hamda badiiy talqinlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida Qur'oni karim va hadisi shariflardagi ayol huquqlariga oid qarashlar, tasavvuf falsafasidagi orifa ayollar (Robiya Adaviya) fenomenining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o'zbek folklori, mumtoz adabiyoti (Alisher Navoiy) va jadidchilik davri asarlaridagi (Abdulla Qodiriy, Cho'lpon) ayol obrazlarining evolyutsiyasi, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqligi yoritib berilgan. Maqola yakunida o'zbek shoiralari ijodining o'ziga xos xususiyatlari va Zulfiya adabiy maktabining shakllanishi masalalariga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ayol obrazi, Islom, tasavvuf, Robiya Adaviya, mumtoz adabiyot, jadid adabiyoti, milliy qadriyatlar, Zulfiya adabiy maktabi.

**Аннотация.** В данной статье исследуются личность женщины, её социально-духовный статус и художественные интерпретации в исламе и восточной литературе. В ходе исследования анализируются взгляды на права женщин в Коране и хадисах, а также значение феномена просвещённых женщин (Рабия аль-Адавия) в суфийской философии. Наряду с этим освещается эволюция женских образов в узбекском фольклоре, классической литературе (Алишер Навои) и произведениях периода джадидизма (Абдулла Кадыри, Чулпан), их связь с национальными и общечеловеческими ценностями. В завершение статьи рассматриваются особенности творчества узбекских поэтесс и вопросы формирования литературной школы Зульфийи.

**Ключевые слова:** женский образ, Ислам, суфизм, Рабия аль-Адавия, классическая литература, литература джадидизма, национальные ценности, литературная школа Зульфийи.

**Abstract.** This article explores the personality of women, their socio-spiritual status, and artistic interpretations in Islam and Eastern literature. The study analyzes perspectives on women's rights in the Quran and Hadiths, as well as the significance of the phenomenon of enlightened women (Rabia al-Adawiyya) in Sufi philosophy. Additionally, it highlights the evolution of female characters in Uzbek folklore, classical literature (Alisher Navoiy), and Jadidist era works (Abdulla Qodiriy, Cho'lpon), emphasizing their connection to national and universal human values. The article concludes by discussing the unique characteristics of the creative works of Uzbek female poets and the formation of the Zulfiya literary school.

**Key words:** female image, Islam, Sufism, Rabia al-Adawiyya, classical literature, Jadid literature, national values, Zulfiya literary school.

**Kirish.** Ayol — Ilohiy Latofat va Huquqiy Tenglik Timsoli. Islom dini nozil bo'lgan ilk davrlardanoq insoniyatga xitob qilib, erkak va ayolni botiniy va zohiriy huquqlarda teng deb e'lon qildi. Qur'oni karimdagi "Niso" (Ayollar) surasining mavjudligi, unda ayolning ijtimoiy mavqeyi, meros va oilaviy huquqlari aniq belgilab berilgani — Islomning ayol shaxsiga bo'lgan yuksak ehtiromidir.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning "Jannat — onalar oyog'i ostidadir" degan muborak hadislar ayolni nafaqat ijtimoiy birlik, balki muqaddas bir mo'tabar zot

darajasiga ko'tardi. Shu bilan birga, ilm talab qilish masalasida ham gender tafovuti yo'qligi, har bir musulima ayol uchun ma'rifat eshiklari ochiqligi ta'kidlandi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqotning nazariy asosini islomiy manbalar, Sharq mumtoz adabiyoti hamda jadid va zamonaviy o'zbek adabiyoti namunalari tashkil etadi. Qur'oni karim va hadislarda ayolning ijtimoiy-huquqiy maqomi yoritilib, tasavvuf falsafasida Robiya Adaviya timsoli orqali ayolning ma'naviy kamoloti talqin etilgan. Sharq mumtoz adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida ayol obrazi donishmandlik, sadoqat va ma'rifat timsoli sifatida gavdalantiriladi. Jadid adabiyotida esa Abdulla Qodiriy va Cho'lpon asarlarida ayol obrazi millat uyg'onishi, ma'rifat va erkinlik g'oyalari bilan bog'liq holda tasvirlangan. Shuningdek, To'maris, Qurbonjon doxoh kabi tarixiy siymolar hamda o'zbek folkloridagi ayol qahramonlar jasorat va vatanparvarlik timsoli sifatida talqin qilinadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab To'xtasin Jalolovning "O'zbek shoiralari" tadqiqoti orqali o'zbek shoir va adibalarining ijodi ilmiy jihatdan keng o'rganila boshlandi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa gender masalalari va ayol ruhiyatining badiiy talqini alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada tarixiy-qiyosiy, tahliliy hamda badiiy-estetik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Qur'oni karim, hadisi shariflar, tasavvuf manbalari, o'zbek folklori, mumtoz va jadid adabiyoti namunalariidagi ayol obrazlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon hamda zamonaviy o'zbek adibalarining asarlaridagi ayol timsollarining badiiy talqini, ularning ijtimoiy-ma'naviy mazmuni va milliy qadriyatlar bilan bog'liqligi o'rganildi. Tadqiqot davomida gender yondashuvi hamda adabiy-komparativ tahlil usullaridan foydalanilib, ayol obrazining tarixiy evolyutsiyasi yoritib berildi.

### **Tahlillar va natijalar.**

**Mifologik ildizlardan tasavvufiy yuksaklikkacha.** I. Momo Havo va Insoniyat Qismatidagi Burihish Olam yaratilishining eng hayratomuz nuqtasi — Odam Atoning yaratilishi bo'lsa, borliqning mukammallashuvi Momo Havoning dunyoga kelishi bilan bog'liq. Rivoyatlarga ko'ra, ayol zotining erkak qovurg'asidan bino qilinishi — ularning bir butun vujud ekanligidan, oralaridagi muhabbat esa ilohiy bir omonat ekanligidan dalolat beradi. Momo Havo — ham ilk gunohning iztirobi, ham ilk tavbaning va so'fiylikning timsolidir. Uning ko'z yoshlari va sog'inchi insoniyat qalbida jannatga bo'lgan abadiy intilishni meros qilib qoldirdi.

II. Tasavvufda Orifa Ayollar: Robiya Adaviya Fenomeni Sharq mumtoz adabiyotida ayol faqat ishq obyektini emas, balki yuksak ma'naviyat egasi sifatida namoyon bo'ladi. Tasavvuf tarixida Robiya Adaviya (Bibi Robiya) siymosi alohida o'rin tutadi. Uning Ollohga bo'lgan beg'araz muhabbati, "Jannat uchun emas, Jamol uchun" ibodat qilishi erkak so'fiylarni ham hayratga solgan. Fariduddin Attor o'zining "Tazkirat ul-avliyo" asarida uni ayollar ichidagi "erkakshoh" (ruhiy quvvati jihatidan) deb ta'riflaydi. Alisher

Navoiy esa “Hayrat ul-abror” dostonida Robiya Adaviyaning sobitqadamligini she’riy misralar bilan sharaflaydi.

**Epos va tarixda qahramon ayol obrazi.** Xalq og‘zaki ijodi — o‘zbek ayolining mardlik va epchillik qomusi hisoblanadi.

-To‘maris va Zarina: Ularning timsolida hukmdorlik va vatanparvarlik mujassam.

-Barchinoy va Guloyim: “Alpomish” va “Qirq qiz” dostonlarida ayol nafaqat latofat sohibasi, balki mardlikda polvonlar bilan bellashuvchi strateg, botir va sadoqatli yor sifatida gavdalanadi.

Tariximizning yaqin sahifalarida Qurbonjon Dodxoh siymosi paydo bo‘ladi. O‘z o‘g‘lining dor ostidagi qatliga vatan ozodligi yo‘lidagi qurbonlik deb qarash — ayol qalbidagi milliy g‘ururning eng oliy cho‘qqisidir.

**Adabiyotda ziyo va ilm: Navoiydan Qodiriygacha.** Alisher Navoiy asarlarida ayol — aql-idrok manbai. “Saddi Iskandariy”dagi Bonu (Iskandarning onasi) obrazi yetti hakimga maslahat beruvchi donishmand sifatida tasvirlanadi. “Farhod va Shirin”dagi Mehinbonu hamda uning atrofidagi o‘n nafar bilimdon qizlar fanning turli sohalarida yagona ekanliklari bilan ta’riflanadi.

Abdulla Qodiriy esa “Mehrobdan chayon” romanida Ra’no obrazi orqali XX asr boshidagi o‘zbek qizining ideal portretini chizadi. Ra’no nafaqat uy ishlarida epchil, balki Navoiy, Fuzuliy va Bedil mutolaasi bilan yashaydigan, she’r yozadigan ma’rifatli qizdir. Bu orqali adib millatning yuksalishi ayollarning bilimli bo‘lishiga bog‘liqligini uqtiradi.

**Jadid adabiyoti: fojia va ozodlik sog‘inchi.** Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebi obrazi — ijtimoiy zulm qurboni bo‘lgan ayolning fojiaviy timsolidir. Uning pokiza qalbi, beg‘ubor orzulari mustamlaka va jaholat botqog‘iga botgan jamiyatda chil-parchin bo‘ladi. Zebi timsoli orqali Cho‘lpon millat ayollarining erksizligini, ma’rifatsizlik insonni qanday tubanlikka yetaklashi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xalqimizning ham ko‘p ming yillik tarixida yurt ozodligi va tinchligi yo‘lida yuksak matonat va mardlik namunalarini ko‘rsatishgan ayollar fenomeni uchraydi. Ayol bo‘lishiga qaramay malika To‘maris vatan uchun jangga kirib bosqinchilarni tor-mor qilgani, kuchli aql-idroki va botirligi bilan dushman qo‘shinlariga qaqshatqich zarbalar berib, ozodlik va mustaqillikni himoya qilib, yuksak mardlik va jasorat namunalarini ko‘rsatganligi bizda cheksiz g‘urur, faxr va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi. Shuningdek, tarixda vatanparvarlik namunasi sifatida nom qoldirgan Qurbonjon dodxoh tarixi yoshlar uchun ibratdir. Qurbonjon dodxoh unvonini olgan birinchi ayol bo‘lgan. U rus bosqiniga qarshi kurash vaqtida Po‘latxon rahbarligidagi qo‘zg‘olon yetakchilaridan biriga aylangan. General Skobelov bu qahramon ayol bilan muzokara o‘tkazishga shaxsan o‘zi boradi. Qurbonjon dodxoh taqdiri ham bizga To‘maris tarixini eslatadi. Ularning ikkalasi ham turmush o‘rtoqlaridan keyin yurtni munosib boshqargan. Hatto farzand dog‘i ham bu ikki ayolni chetlab o‘tmagan. To‘marisning o‘g‘li Siparangiz Kir tomonidan o‘ldirilgan bo‘lsa, o‘z vatanini g‘animlardan ozod qilishga harakat qilgan Qurbonjon dodxohning o‘g‘li

Qamchinbek Kaufman tomonidan dorga osilgan. O'g'lining qatl qilinayotganini kuzatib turgan Qurbonjon dodxoh "Xayr, qahramon o'g'lim, ota-bobolaring ham vatan ozodligi yo'lida dushman qo'lida halok bo'lgan, shahid o'lmoq bizga merosdir" - deya otini ters burib keta olgan. Bu vatanparvar ayol bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari uchun vatanparvarlik, qahramonlik timsoli sifatida g'urur tuyg'usini shakllantiradi.

Har bir qizlarning ismlari va ularning ismlariga monand kasb-hunarlarini, iqtidorlarini tavsiflaydiki, Mehinbonu saroyidagi qizlarning ilm-u zakosi naqadar ulug'langanligini ko'rishimiz mumkin. Ularning iqtidori, go'zal xulqi siyratida ham mujassam etganligi ilgari surilgan.

Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,  
Yuz ul fanliq aro har qaysi yakfan.

Dilorom-u Diloru-yu Diloso,  
Gulandom-u Sumanbo-yu Sumanso.

Parichehra Parizod-u Parivash,  
Paripaykar zihi o'n ismi dilkash.[1.272]

Besh asr muqaddam buyuk Alisher Navoiy o'zining "Saddi Iskandariy" dostonida yetti olinga dono maslahatchi hisoblangan, podshoh Iskandarning onasi Bonu timsolini yaratgan:

Ki: "Bonuki davrondin ogoh erur,  
Bilik ichra davr ahlig'a shoh erur".[2.636]

"Mehrobdan chayon" romanining birinchi faslini Qodiriy Solih Mahdum, Nigor oyim, ularning to'ng'ich farzandi Ra'no va "Ra'noning egasiga" bag'ishlangan tasvirlar bilan boshlaydi. O'quvchi Ra'noni ilk marotaba "hovli yuzida ikkita ukasining o'rtasiga tushib, ularning "loy o'yin"iga ishtirok etgani va "yer supurib yotgan soch o'rimlarining tuproqqa belashganidan xabarsiz" bir holatda ko'radi. Tabiatida hali bolalik saqlanib qolgan, hali bolalik o'yinlariga ishtiyoqi so'nmagan mana shu go'zal qiz o'n yetti yoshni to'ldirib, o'n sakkizga qadam qo'ygan edi. Adib avvaliga go'yo Ra'noni zohiran tanishtiradi. "Ra'no" deb nomlangan yettinchi faslida esa uning botiniy xususiyatlari, ilm darajasidan ham bahs yuritiladi. Ra'no "Savodni otasidan o'qib, o'n to'rt yoshida ibtidoiy maktab programmasi bo'lgan barcha darslarni bitirgan, masalan: diniy qismdan – "Haftiyak", "Qur'on", "Chahor kitob", "So'fi Olloyor", "Maslak ul-muttaqin", adabiyotdan Navoiyning barcha asarlari, "Devoni Fuzuliy"... "Layli va Majnun", Amiriy, Fazliy va shulardek chig'atoy-o'zbek katta shoirlarining, forsdan Xoja Hofiz Sheroziy va Mirzo Bedil; husnixat; insho va boshqalar. Bu kunlarda bo'lsa, bir tomondan qizlarga saboq berib, onasiga ko'maklashsa, ikkinchi tarafdan otasidan qofiya (arab nahv va sarfi) hamda Shayx Sa'diyning "Guliston"idan dars oladi va shuning qatorida o'zi yaxshi

ko‘rgan chig‘atoy-o‘zbek shoirlarining badiiy asarlaridan alohida bir majmua tuzib yuriydir...”[3.23]

Lekin bu hali hammasi emas. Ra‘noning ko‘ngli she‘rga ham oshno “o‘zicha manzumalar” ham to‘qiydi. Demak, bu romanda ayollar obraziga keng e‘tibor qaratilganligini kuzatish mumkin. Ijodkor Ra‘no obrazi orqali davr ayollarini, qizlarini ilmi bo‘lishga, dunyoviy ilmlarning barchasini egallashga loyiqligini ko‘rsatadi.

Jadid adabiyotida ayollar timsoli o‘ziga xos hisoblanadi. Bunda o‘sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma‘rifatga, jaholat botqog‘idan chiqishga qaratiladi. Xususan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida Zebi timsoli orqali oydinlashtiramiz. Zebining ilojsizligi o‘sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi. Zebi–hurkak ohu kabi go‘zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o‘ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to‘lib yotgan dunyoga muhabbat ko‘zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go‘zallik bilan kelishmaydi, go‘dakday beg‘ubor bo‘lgani uchun ham bag‘ri ifloslik va kirga to‘la hayot uni sig‘dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo‘lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo‘y havosida nafasi bo‘g‘iladi. Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham, romanga qanday kirib kelgan bo‘lsa, shundayligicha qoladi. Zebining bu holatiga biz taqdirdosh, qismatdosh, darddosh bo‘lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsizligiga mamlakatdagi zulm-zo‘rovonlik sabab ekanligidadir. Cho‘lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o‘zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va olijanob insoniy fazilatlari bilangina emas, ayni paytda xush ovozi bilan barchaning e‘tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukmron bo‘lgan va ayollar qadr-qimmati oyoq osti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslarini yanchiladi. Ajdodlarimiz asrlar davomida ana shu tengsizlikka qarshi ma‘rifat bilan kurashdilar. 1920-1930-yillarda avj olib ketgan siyosiy ta‘qib o‘zbek xalqining boshiga og‘ir kunlarni soldi. Ota-bobolarimiz udumlariga eskilik sarqitlari deb, momolarimiz o‘gitlariga bepisandlik, muqaddas qadriyatlarimizga qurol ko‘tarishdek nafrat tuyg‘ulari har bitta o‘zbek xalqini majburan o‘ziga tortqilardi. O‘zbek xalqi o‘zining boy merosi, qadimiy madaniyati, milliy qadriyatlarini hech bir joyda ochiq - oydin gapirolmas, o‘z tuyg‘ularini yuragida sirligicha saqlab yashaydigan bir davr edi. Bunday paytda yurt taqdiri, farzand kelajagi, vatan ozodligi, inson qadr-qimmati to‘g‘risida og‘iz ochish boshini dorga tikish bilan barobar edi.

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek adibalari ijodini to‘plash, nashr etish, ular to‘g‘risida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish jiddiy tus oldi. Bunda adabiyotshunos To‘xtasin Jalolovning alohida xizmatlarini e‘tirof etish zarur. Benazir adib Oybek T.Jalolovning “O‘zbek shoiralari” kitobi to‘g‘risida, jumladan, quyidagilarni alohida ta‘kidlaydi: “To‘xtasin Jalolov Oktabr inqilobidan ilgari o‘tgan o‘zbek shoiralari haqida muhim asar yozdi. Shu vaqtga qadar o‘zbek adabiyotida o‘zbek shoiralari, ularning asarlari, hayotlari o‘rganilmagan deyarlidir. Ular haqida yakunlangan asarlar yo‘qdir. Ayrim shoirlar to‘g‘risida endi-endi adabiyotchilarimiz ishlay boshladilar. Bu huquqsiz,

cheksiz jaf o'rgan mazluma shoiralarning asarlari, ularning baxtsiz taqdirlari bo'ronda yo'q bo'lib, unutilib ketgan. T.Jalolov tarix varaqlarini axtara-axtara o'zbek shoiralari haqida qimmatli xiyla ma'lumotlar to'pladi. O'zining katta sinchikli tekshirishlari natijasida o'ttizdan ortiq o'zbek shoiralari topdi. Bu g'oyat ajoyib voqeadir.

Xalqimiz o'zbek adabiyoti tarixining yorqin sahifalarini ko'rishga mushtaq va bunday asarlarga tashnadir" [4.5].

T.Jalolovning mazkur asari o'ziga xos tazkira ko'rinishida bo'lib, unda Zebunnisodan tortib 1980-yillarga qadar ijod qilgan o'zbek shoiralari ijodigacha qamrab olingan. Ushbu asar adabiyotimiz tarixi, xususan, unda yashab ijod etgan mumtoz shoiralimiz hayoti, ijodiga oid katta adabiy materiallarni qamrab olganligi bilan muhimdir. Kitobda Zebunniso, Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Muazzamxon, Nozima xonim, Samarbonulardan tashqari nomlari unchalik mashhur bo'lmagan yana o'nlab iqtidor egalari ijodi to'g'risida ilk ma'lumotlar va kuzatishlar amalga oshirilgan.

**Xulosa.** Ayol Qalbi — Ijod Manbai. XX asrning ikkinchi yarmida To'xtasin Jalolovning "O'zbek shoiralari" tadqiqoti o'zbek adabiyoti tarixidagi 30 dan ortiq unutilgan shoiralari nomini qayta tikladi. Bu jarayon Zulfiya adabiy maktabining shakllanishiga zamin yaratdi.

Ayol ijodkor (Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva kabi) ayol ruhiyatini ichkaridan his qiladi. Ayol obrazi adabiyotda shunchaki personaj emas, balki hayot davomiyligi, ma'naviy poklik va kelajak poydevori bo'lib qolaveradi. Zero, ayol qalbining chuqur qatlamlarini anglamay turib, komil inson konsepsiyasini yaratib bo'lmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Саккизинчи том. Фарҳод ва Ширин. - Т., 1986. – Б.272.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Тўққизинчи том. Садди Искандарий. – Т., 1986. – Б.386.
3. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Roman. T.:Navro'z, 2019. – B.23.
4. Ойбек. Сўз боши. Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б.5.